Norboyeva Zarina
Toshkent Davlat Sharqshunoslik
Universiteti Turkshunoslik fakulteti
Siyosatshunoslik yo‘nalishi
2- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: A.Mamadjonov

https://doi.org/10.5281/zenodo.7620111
https://explore.openaire.eu/search/publication?pid=10.5281%2Fzenodo.7620111

OGAHIY ASARLARIDA XIVA XONLIGI TASHQI SIYOSATI VA DIPLOMATIYASI XUSUSIYATLARINI AKS ETIRILISHI

Anotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy tarixiy asarlarida tasvirlangan Xiva xonligi ichki va tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari, elchililik va diplomatik munosabatlari. Ogahiyning hayot yo‘li, uning siyosiy faoliyati va ijodi haqida ma’lumotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: Madrasa ta’limi, tarixiy devonlar**,** miroblik, “Firdavs-ul-iqbol” , “Zubdat ut-tavorix”, Shoxidi Iqbol”, tarjima asarlar.

Аннотация: В этой статье было представлено информация о произведениях Мухаммад Риза Агахи в которых описываются уникальные свойства внутренней и внешней политики Хивинского ханства, посольские и дипломатические отношения, жизненный путь, политическая деятельность и творчество Агахи.

Ключевые слова: Медресе, исторические диваны(сборники стихов), мирабство, "Фирдавс ул-икбал", "Зубдат ул-таварих", "Шахид ул-икбал". переведённые произведения.

Annotation: In this article were provided information about distictive characteristics of domestic and foreign policy of Khaganat of Khiva, it's ambassadorial and diplomatic relationships that were described in the works of Muhammad Riza Agahi, his life path, political activity and creations.

Key words: Madrasa, historical divans, mirablik, “Firdavsu-l-iqbol” , “Zubdat ut-tavorix”, Shoxidi Iqbol” , translated works.

Vatan – bu biz tug‘ilib o‘sgan zamin, kindik qonimiz to‘kilgan tuproq, bobolarimiz izlari qolgan, ajdodlarimiz merosi avlodlarimizga qoladigan yurtdir. Mustaqillika erishganimizdan so’ng barcha sohalar asta sekin rivojlanib bordi shu qatorda bizning madaniyatimiz qadriyatlarimiz o’zligimiz tariximiz ham o’zining asl qiyofasini aks ettira boshladi. O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezedenti I.Karimov ta’kidlaganidek “O’tmishi buyuk xalqni yengib bo’lmas ekan,demak biz xalqimizni haqqoniy tarixi bilan qurollantirishimiz kerak” degan fikrlari ahamiyatlidir.Tarixiy xotirasiz yorqin istiqbolli kelajakni yaratib bo’lmaydi. Ana shunday buyuk allomalarimizdan o’z davrida hamda bugungi kunda qoldirgan ijodiy merosi o’z o’rniga ega bo’lgan Muhammad Rizo Ogahiydir.

Ogahiy Xorazm diyoridagi atoqli tarixchi, talantli shoir va tarjimon bo’lgan.Hayoti, ijodi va ilmiy merosi haligacha tarixchilarimiz va adabiyotchilarimiz tomonidan o’rganilishda davom etmoqda.O’rta Osiyo, jumladan Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o’rganishda va yoritishda Ogahiy tomonidan yozilgan tarixiy asarlar va o’zbek tiliga qilingan tarjimalarning ahamiyati nihoyatda katta.O’z ustozi Munisning ishini davom ettirgan holda tarix fani xazinasini va o’zbek adabiyotini yangi asarlar bilan boyitdi,rivojlantirdi va unga salmoqli hissa qo’shdi.

Ogahiy 1809-yili 17-dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyotqishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. Shu yerda boshlang‘ich ma’lumotni oladi. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning yana bir yorqin siymosi bo‘lmish amakisi Munisning tarbiyasida bo‘ldi. U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o‘rgandi. Xiva xonligining keyingi hukmdori Olloqulixon taxtga o‘tirgach, 1839- 1840-yillar oralig‘ida Munisning shogirdi Ogahiyga 1813-yili voqealari bayoni bilan to‘xtagan «Firdavsu-l-iqbol” asarini davom ettirishni buyurgan [1]. Bu davrda 30 yoshga kirgan Muhammad Rizo Ogahiy ustozi Munis boshlab qo‘ygan, ammo tugallay olmagan «Firdavsu-l-iqbol” nomli asarni davom ettiradi . Munis va Ogahiy hamkorligida yozilgan “Firdavsu-l-iqbol” asari mintaqada yashagan o‘zbek, tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, rus,

[1] Мунировқ. Хоразмда тарихнавислик:: (XVI–XIX ва XX аср бошлари). – Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.

eron, afg‘on xalqlarining kelib chiqish tarixi, madaniyati, san’ati, urf-odatlari, turmush tarzini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.U davlat ishlari bilan mashg‘ul bo‘lar ekan, badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to‘xtatmadi. Ogahiy devonidan turli: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she’rlar joy olgan.

Ogahiy o’z hayoti davomida Xiva xonlari Muhammad Rahimxon I (1806-1825), Olloqulixon (1825-1843), Rahimqulixon (1843-1845), Muhammad Aminxon (1845-1855), Abdullaxon (1855-1855), Qutlug’murodxon (1855-1855), Sayid Muhammadxon (1855-1864), Muhammad Rahimxon II (1864-1874) davrlarida yashab ijod qilgan. Ogahiy quyidagi tarixiy kitoblarning muallifi bo’lgan: Olloqulixonga bag‘ishlangan “Riyoz ud-davla” (1844-y.), Rahimqulixon davriga bag‘ishlangan “Zubdat ut-tavorix” (1846-y.), Muhammad Aminxon davriga bag‘ishlangan “Jome’-ul voqeoti Sultoniy” (1856-yil), Sayid Muhammadxon davriga bag‘ishlangan “Gulshani davlat” (1865 yil), Muhammad Rahimxon Feruz davriga bag‘ishlangan “Shohidi iqbol” (“Iqbol shohidi”) asarlarida Xiva xonligining 1813-yildan to 1874-yilgacha bo‘lgan tarixi davriy izchillikda, boy tarixiy manbalar asosida yoritib berilgan edi.[2]

U Xiva taxtiga ketma-ket kelib ketgan sakkiz xon hukmronligi davrida yashab, harbiy yurishlar, tarixiy voqealar guvohi bo‘ldi va ularni o‘z asarlarida aks ettirdi .Uning tarixiy asarlari Xorazmda qariyb 60 yil ichida sodir bo’lgan voqealarning tarixiy badiiy solnomasidan iboratdir. Sharqda, jumladan, Turonzaminda hukmdorlarning so‘zga ilohiy ne’matdek qarashlari odatiy hol. Yaxshi nom qoldirish ular hayotining asosiy dasturi hisoblangan. Xorazm xoni Rahimqulixonning “zikri jamil” va “vasfi jalil”ini “zamon avroqida boqiy qoldirish” va “jahon ahlin hayrat bahrig‘a solish”dek xayrli niyat “Zubdatut-tavorix” asari yaratilishining asosiy sababidir.[3]

Ma’lum bo‘ladiki, Ogahiy bu memuar qissani Rahimqulixon farmoniga binoan yozishga kirishgan. “Zubdatu-t-tavorix” ikki qismdan iborat. Muarrix qayd etganidek, asarning birinchi qismida Rahimqulixonning tavalludi, ilm o‘rganish va harbiy mahorat egallash yo‘lidagi sa’y-harakatlari, shuningdek, bo‘lg‘usi xonning Hazorasp hokimi sifatida

[2] Мунировр Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. – Т.: Фан, 1960.
[3] . Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Жабборов. -Т., 2009

olib borgan faoliyati sajli nasrda (nasri musajja'da) go'zal badiiy shaklda mufassal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismi Rahimqulixonning saltanat taxtiga o'tirgan kunidan vafotiga qadar sodir bo'lgan voqealar tasviriga bag'ishlangan. "Zubdatu-t-tavorix" ikki qismdan iborat. Muarrix qayd etganidek, asarning birinchi qismida Rahimqulixonning tavalludi, ilm o'rganish va harbiy mahorat egallash yo'lidagi sa'y-harakatlari, shuningdek, bo'lg'usi xonning Hazorasp hokimi sifatida olib borgan faoliyati sajli nasrda (nasri musajja'da) go'zal badiiy shaklda mufassal bayon qilinadi. Asarning ikkinchi qismi Rahimqulixonning saltanat taxtiga o'tirgan kunidan vafotiga qadar sodir bo'lgan voqealar tasviriga bag'ishlangan.XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Chor Rossiyasi O'rta Osiyo xonliklarini o'ziga qaram qilib oladi.Bu harakatlarni Ogahiy o'zining "Shoxidi Iqbol" asarida bayon qiladi.[4]

Ammo Ogahiy Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga kirib kelishini oxiriga qadar hikoya qila olmaydi,chuki u o'z asarini tugata olmay,1874 yilda vafot etadi. Ogahiy " Shoxidi Iqbol" asarining ikkinchi bobida rus qo'shinlari Buxoro amirligi bilan olib borgan urushlarini tasvirlaydi .Bu asarda dastlab Chor Rossiyasi qo'shinlarining Qo'qon xonligiga tegishli bo'lgan shaharlarni istilo qilganini va Qo'qon xonligining Xiva xonligidan yordam so'raganini bayon qiladi.Ammo Ogahiy Chor Rossiyasining Xiva va boshqa xonliklar bilan olib borgan ijtimoiy iqtisodiy aloqalari sabablarini mustamlakachilik siyosatining qanday amalga oshirilganini anglay olmaydi.

Bugungi kunga qadar Ogahiydan boy ijodiy meros qoldi. U madrasada o'qib yurgan paytlaridayoq "Bayozi mutafarriqai forsiy" nomli bayoz tuzdi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy g'azallarini kiritish bilan bir qatorda ularga ergashib yozgan o'zining o'n besh g'azali va ikki muxammasini qo'shdi. Ogahiy jahon madaniyatini nodir durdonalari hisoblangan Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Nizomiyning "Haft paykar", Hiloliyning "Shoh va gado", Kaykovusning "Qobusnoma", Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Jomiyning "Yusuf va Zulayho" kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.[5]

[4] Muhammad Rizo Ogahiy .Asarlar VI jildlik.Toshkent.1978
[5] Ma'naviyat yulduzlari" (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999)

Ogahiyning tarixiy asarlariga akademik V. V. Bartold yuqori baho bergan: “Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar… voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan daliliy manbalarning ko‘pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo‘qon va Buxoro xonliklari tarixi bo‘yicha bo‘lgan hamma asarlarni o‘zidan ancha orqada qoldiradi”.[6] Ogaxiyning tarixiy asarlari daliliy manbalarning boyligi va ishonchli bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мунировъ Қ. Хоразмда тарихнавислик:: (XVI–XIX ва XX аср бошлари). – Т., Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.
2. Мунировъ Қ. Мунис, Огаҳий ва Баёнийларнинг тарихий асарлари. – Т.: Фан, 1960
3. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Зубдату-т-таворих / Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Н.Жабборов. -Т., 2009
4. Muhammad Rizo Ogahiy, Asarlar VI jildlik, Toshkent 1978
5. Ma’naviyat yulduzlari. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999.
6. 6. Бартольд.В.В ,История культурное жизнь Туркестана. Л 1927

[6] Бартольд.В.В ,История культурное жизнь Туркестана. Л 1927